


## X. KICHIK TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularni erkin faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit va muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar davomida 2025-yil 1-oktabr holatiga ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlarining soni 32 792 tani tashkil qildi. (2024- yil 1- sentabrga nisbatan 13,0 % ga kamaygan).

### Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining 2025- yil 1- sentabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi



■ Sanoat ■ Savdo ■ Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi ■ Qurilish ■ Boshqalar


Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo tarmog‘ida (jami tashkil etilgan subyektlarning 39,5 %), sanoat sohasida (20,2 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (8,7 %) va qurilishda (6,8 %) tashkil etilgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar**

	2024- yil yanvar-sentabr	2025- yil yanvar- sentabr
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>3 209</b>	<b>3 138</b>
Namangan shahar	954	923
Mingbuloq	234	258
Kosonsoy	220	219
Namangan	123	141
Norin	181	207
Pop	254	204
To'raqo'rg'on	154	161
Uychi	151	171
Uchqo'rg'on	256	240
Chortoq	204	213
Chust	238	212
Yangiqo'rg'on	240	189

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Namangan shahrida – 923 ta, Mingbuloq tumanida – 258 ta Uchqo'rg'on tumanida – 240 ta, Kosonsoy tumanida – 219 ta, Chortoq tumanida – 213 ta, Chust tumani – 212 ta, Norin, tumanida – 207 ta, Pop tumani – 204 ta, Yangiqo'rg'on, tumanida – 189 ta, Uychi tumani – 171 ta, bu ko'rsatkich o'rtacha darajani tashkil etgan. To'raqo'rg'on, tumanida – 161 ta Eng past ko'rsatkich Namangan tumanida – 141 tani tashkil etdi.

**2025- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, %da**




2025- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Namangan shahrida – 29,4 %, Mingbuloq tumanida – 8,2 % Uchqurg'on tumanida – 7,6 %, Kosonsoy tumanida – 7,0 %, Chortoq tumanida – 6,8 %, Chust tumanida – 6,8 % Norin tumanida – 6,6 %, Pop tumanida – 6,5 %, Yangiqo'rg'on tumanida 6,0 %, Uychi tumanida – 5,4 %, va tashkil etdi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning 72,8 % (2024- yil yanvar- sentabr oylarida 73,4 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

Kichik biznes subyektlari tomonidan 238,0 mln AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 48,4 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, 502,2 mln AQSH dollari (umumiy import hajmining 68,1 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning  
iqtisodiyotdagi ulushi**  
(2025- yil yanvar-sentabr oylari holatiga, % da)



**Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi**  
(2025- yil yanvar-sentabr)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Kichik tadbirkorlik subyektlari (ish, xizmat) hajmi, mlrd soʻm	Jami hajmga nisbatan ulushi, % da
Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi	26 611,3	106,0
Sanoat	14 342,8	109,0
Qurilish	10 103,8	109,0
Chakana savdo	17 419,4	107,9
Yuk tashish, mln tonna	23,5	102,9
Yoʻlovchi tashish, mln kishi	363,8	102,5

**2025- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning  
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,  
(%da)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiyalar
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>51,7</b>	<b>92,0</b>	<b>74,1</b>	<b>79,1</b>
Namangan shahar	60,8	90,9	54,8	78,0
Mingbuloq	33,7	98,5	78,8	95,7
Kosonsoy	39,9	99,0	78,6	90,6
Namangan tuman	86,7	94,7	81,1	47,4
Norin	99,9	98,6	78,5	75,9
Pop	90,3	56,3	71,5	95,7
To'raqo'rg'on	8,6	97,6	74,7	64,7
Uychi	66,7	79,2	78,5	58,1
Uchqo'rg'on	52,7	89,5	78,5	86,4
Chortoq	35,8	98,8	75,0	80,6
Chust	23,6	96,7	75,2	69,9
Yangiqo'rg'on	100,0	96,6	82,1	90,2

Hududlar bo'yicha Sanoat sohasining yuqori ulushini Yangiqo'rg'on, (100,0 %) Norin tumanlari (99,9 %) hamda Pop (90,3 %) Namangan t (86,7 %) tumanlari tashkil etdi.

Qurilishda – Kosonsoy, (99,0 %) Chortoq (98,8 %) Norin t (98,6 %) Mingbuloq (98,5 %), To'raqo'rg'on (97,6 %) Chust (96,7 %) tumanlari tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida – Yangiqo'rg'on t (82,1 %), Namangan t (81,1 %), Mingbuloq (78,8 %), Norin t, Uychi t, Uchqo'rg'on (78,5 %), tumanlari tashkil etdi.

Investitsiyada – Pop t (95,7 %), Mingbuloq (95,7 %), Kosonsoy, (90,6 %) Yangiqo'rg'on t (90,2 %), Uchqo'rg'on t (86,4 %), tumanlari tashkil etdi.